

**UMUMTA'LIM MAKTABLEARNING 10-SINF O'QUVCHILARIGA
GEOGRAFIYA FANIDAN XXI ASR KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH**

Sanoyeva Charos Komilovna
charossanoyeva15@gmail.com
(+99893) 474 33 40

*Buxoro viloyat Pedagoglarni yangi
Metodikalarga o'rgatish milliy
markazi geografiya fan metodisti*

Annotatsiya: Jamiyat taraqqiyoti, mamlakatimizda ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlar jahon andozasiga mos yetuk va yuqori darajada fikrlaydigan kadrlar tayyorlashni taqozo etadi. Mazkur maqolada geografiya fanini 10-sinf o'quvchilarning mavzu yuzasidan bilish, qo'llash hamda mulohaza yoritishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Variativ o'quv reja, kreativlik, kollobaratсиya, kommunikativlik, ilg'or pedagogik tajriba.

Abstract: The development of society, reforms in the field of education in our country require the training of mature and highly thinking personnel in accordance with the world standard. This article describes the 10th grade students' knowledge, application and reflection on the subject of geography.

Key words: Variable curriculum, creativity, collaboration, communication, advanced pedagogical experience.

Аннотация: Развитие общества, реформы в сфере образования в нашей стране требуют подготовки зрелых и высокомыслящих кадров в соответствии с мировым стандартом. В данной статье описаны знания, применение и размышления учащихся 10-х классов по предмету география.

Ключевые слова: вариативный учебный план, творчество, сотрудничество, общение, передовой педагогический опыт.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim sifatini yanada oshirish jahon standartlariga mos raqobat bardosh mutaxassislar tayyorlashda o'quvchilar ongi va qalbiga XXI asr ko'nikmalarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu yuksak maqsadni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sod Farmoni, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida 2023-yil 28-fevraldaggi PF-27-sod Farmonidagi topshiriqlar ijrosi yuzasidan umumta'limga

muassasalari o‘quvchilarining qiziqishlarini inobatga olish, maktab o‘quvchilarining oily o‘quv yurtlariga tayyorgarlik ko‘rishlariga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 19-iyuldagagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 213-sonli buyrug‘i qabul qilindi.

Umumta’lim maktablarda variativ o‘quv rejalarini joriy etishning asosiy maqsadi:

- o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quvchining manfaatlarini inobatga olish;
- o‘quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish;
- o‘quvchilarining individual xohish-istiklari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish;

- O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini (kreativlik, kolobaratsiya, kommunikativlik, kritik fikrlash, tanqidiy fikrlash) shakllantirish.

- ta’lim muassasalarining o‘zida o‘quvchilarining oliy ta’lim muassasalariga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun sharoitlar yaratish va bu orqali ota-onalarning repetitorlarga ortiqcha mablag‘ sarflamasliklariga qo‘srimcha imkoniyatlar yaratishdir.

Variativ sinflarini umumta’lim maktablarda 18 ta yo‘nalishlarda tashkil etish tavsiya etilgan, shundan o‘ninchisi 7-11-sinflar uchun – *Geografiya va Geologiya* yo‘nalishini tashkil etadi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan Geografiya va Geologiya yo‘nalishidagi variativ sinfda Geografiya va Matematika fanlari tanlov fanlari hisoblanadi.

Tanlov fanlari uchun ajratilgan soatlar quyidagi taqsimot asosida o‘qitiladi:

7-8-9-sinflarda “Geografiya” fani 1 soatdan , “Matematika” fani 1 soatdan o‘qitiladi. Bunda 7-8-9-sinflarda “Matematika” faniga ajratilgan 1 soatda “Algebra” fani o‘qitiladi. 10-11-sinfda “Geografiya” fani 5 soat, “Matematika” fani 4 soat o‘qitiladi. Bunda, 10-11-sinfda “Matematika” faniga ajratilgan 4 soatning 3 soatiga “Algebra”, 1 soatiga “Geometriya” fani o‘qitiladi.

Mazkur variativ sinflarda geografiya faninini yanada o‘quvchilarga chuqurroq o‘rganishlari uchun Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazidagi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limida “Umumta’lim maktablarning 10-sinf o‘quvchilariga geografiya fanidan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha” metodik qo‘llanmani tayyorlab chiqdik. Metodik qo‘llanmani Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi 27-maktabda geografiya fani darslarida geografiya fani o‘qituvchisi sifatida o‘quvchilariga aprobatsiyadan o‘tkazdik. Olib borilgan monitoringga ko‘ra, fan o‘qituvchilari mazkur qo‘llanmadan o‘z ish faoliyati davomida o‘rinli foydalansalar quyidagi natijalarga erishiladi:

- birinchidan, geografiya fani o‘qituvchisi yangi mavzuni o‘tishda;
- ikkinchidan, yangi mavzuni mustahkamlashda;
- uchinchidan, o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda;

- to‘rtinchidan, geografiya fani bo‘yicha o‘quvchilarni fan olimpiadalarga tayyorllashda;
- beshinchidan, mazkur qo‘llanmaning har bir mavzusi bo‘yicha QR ham mavjud bo‘lib o‘quvchilar istagan vaqtida foydalanishi mumkin.

Mazkur metodik qo‘llanmaning afzalligi shundaki 10-sinf geografiya fanidan har bir mavzu bo‘yicha 5 tadan savollar (ya’ni o‘quvchilarning mavzuni bilishi) amaliy topshiriqlar (qo‘llash) va mantiqiy va tanqidiy savollar(mulohaza yuritish) berilgan. Mavzulardan namunalar.

Mavzu: Turkiya Respublikasi.(Bilish)

1-Topshiriq Savollarga javob yozing.

1. Turkiya qaysi dengizlar orasida joylashgan?
 2. Nimaga Turkiya hududi yuqori seysmik mintaqasi sanaladi?
 3. Asosiy dini qaysi?
 4. Mamlakatda xorijiy sayyoohlarni jalb qiladigan qanday turistik zonalari bor?
 5. Turkiya qaysi qit’ada joylashgan?
-
-
-
-

2-Topshiriq (Qo‘llash)

Turkiya qaysi davlatlar bilan chegaradosh?

3-

Topshiriq (Mulohaza qilish)

Turkiyada ko‘pincha jamoat binolarining tom qismida qora rangli kamon o‘qi joylashtirilgan bo‘ladi. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

Mavzu: Rossiya Federatsiyasi



1- Topshiriq (Bilish)

Rossiya Federatsiyasi maydonining kattaligiga ko‘ra nechanchi o‘rinda turadi? Rossiya Federatsiyasi nechta davlat va nechta dengiz bilan chegaradosh? Rossiya gaz zaxiralariga ko‘ra jahonda nechanchi o‘rinda turadi? Mamlakatning eng kata avtomobil zavodi qaysi? Rossiyaning holi soni qancha?

2-Topshiriq (Qo‘llash)

Rossiyaning 7 ta shahrida metropoliten bor. Moskva shahridagi metropolitenda O‘zbekistonligi marmarlar bezak elementlarida ishlatilgan. Savol ushbu marmar O‘zbekistonning qaysi konidan olingan?

3-Topshiriq (Mulohaza)



Rossiya Federatsiyasining asosiy qismi osiyo qit’asida joylashgan bo‘lsada, nega u yevropa tarkibiga kiradi?

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, mazkur qo‘llanmadan kutilayotgan natija:

- metodik qo‘llanma o‘quvchilarining faolligini oshiradi;
- o‘quvchilarining geografiya fanidan chuqr bilim olishga undaydi;
- olingan nazariy bilimni amalda qo‘llash ko‘nikmasining rivojlantirishga yordam beradi.

Quyida mazkur metodik qo‘llanmaning har bir mavzusi yuzasidan QR kodini ham taqdim etdik. Bundan tashqari biz hozirgi kunda umumta’lim maktablarning 7-sinflari uchun geografiya fanidan xuddi shunday metodik qo‘llanmalarni tez kunda o‘qituvchilar e’tiboriga havola qilishni o‘z oldimizga maqsad qildik.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712сон Farmoni.
2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni.
3. Soliev A.S., Mallaboev T. Iqtisodiy va sotsial geografiya kursida ayrim qonuniyatlarni o‘rganish metodikasi. -T., 1995.
4. Soliev A.S., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy muammolari. -T., 1999.
5. Soliev A.S O‘zbekiston geografiyasi. Darslik. T-2014, 352 bet
6. Safoev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., JIDU, 2005.
7. Panarin A.S. Globalnoe politicheskoe prognozirovaniye. Uchebnik. -M, 2000.-349s. Nartov N.A. Geopolitika. M., 2000.
8. Nigmanov E Iqtisodiy geografiya (jadvalarda). O‘quv qo‘llanma T-2016, 301 bet Aybulatov N.A. Geoekonomika. M., 1999-428 s.